O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
REKTORINING BUYRUG‘I

2023yil “ 1 ” mart **№ 43-UM** **Toshkent sh.**

Magistrlik dissertatsiyalari mavzularini umumiy bazaga kiritish va talabalarga biriktirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan “Magistratura to‘g‘risida”gi Nizom, Adliya vazirligidan 2009-yil 5-iyunda 1963-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi Nizom va Universitet Kengashining 2023-yil 25-fevraldagi 7-son majlis qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. 2022/2023-o‘quv yilida qo‘shimcha ravishda o‘qishga qabul qilingan, yanvar oyida o‘qishga tiklangan va qo‘shma dastur asosida o‘qishga qabul qilingan 1-kurs magistratura mutaxassisliklari talabalariga taklif etilgan magistrlik dissertatsiyalari mavzulari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va umumiy bazaga kiritilsin **(Magistratura bo‘limi boshlig‘i Sh.J. Saidov mas’ul).**

2. 2022/2023-o‘quv yilida qo‘shimcha ravishda o‘qishga qabul qilingan, yanvar oyida o‘qishga tiklangan va qo‘shma dastur asosida o‘qishga qabul qilingan magistratura mutaxassisliklari talabalariga biriktirilgan magistrlik dissertatsiyalari mavzulari va ularning rahbarlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Fakultetlar dekanlari I.Y.Bultakov, Q.U. Imamnazarov, Z.M. Qodirov, E.O. Matchanov, Magistratura bo‘limi boshlig‘i Sh.J. Saidov va mutaxassis tayyorlovchi kafedralar mudirlariga:

3.1. Magistrlik dissertatsiyalari “Magistratura to‘g‘risida”gi Nizom talablariga mos ravishda tayyorlanishi, ularning old himoyasi va yakuniy davlat attestatsiyalari belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi ta’minlansin.

3.2. Mazkur buyruq bilan tasdiqlangan magitrlik dissertatsiyalar mavzulariga o‘zgartirishlar kiritilmasligi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilsin.

3.3. Ikki hafta muddatda talabalar familiyasi, ismi, otasining ismi hamda dissertatsiya mavzulari, ishning qisqacha maqsadi va vazifalari haqidagi ma‘lumotlarni universitetning rasmiy saytida e‘lon qilinsin.

4. **Devonxona va arxiv bo‘limi boshlig‘i (M.Sh. Yakubjanova)ga:**

Mazkur buyruqni nusxalari o‘rnatilgan tartibda tegishli prorektor, bo‘lim boshliqlari, fakultetlar dekanlari va kafedra mudirlariga yetkazish vazifasi yuklansin.

5. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor A.A.Vaxidov va Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor D.B. Sayfullayev zimmallariga yuklansin.

Rektor **G.Rixsiyeva**

TDSHU rektorining
2023-yil "_1_" _mart_-dagi
43-ШД-son buyrug'iga 1-ilova

2022/2023-O'QUV YILI UCHUN MAGISTRLIK DISSERTATSIYALARI MAVZULARINING BAZASI

SHARQ FILOLOGIYASI VA TARJIMASHUNOSLIK FAKULTETI

	Mavzu taklif qilgan professor-o'qituvchi	O'zbek lotin yozuvida	Rus tilida	Ingliz tilida	Qisqacha annotatsiya
70230101-Lingvistika (arab)					
1.	Ali Abdelzaher, PhD,	"Adab-ul-Mufrad" asarida izofa turlarining qo'llanishi	Применение видов изафетного сочетания в "Абдул Муфрад"	Using the types of Idafa in "Adabul Mufrad"	Buyuk tilshunos Mahmud Zamaxshariyning "Adabul-Mufrad" asari grammatikaning turli sohalarini yoritgan. Ushbu asardagi izofa turlarinig qo'llanilish o'rinlari tadqiq etiladi.
2.	B.M. Begmatova dots	Ibn Hojibning "Kofiya" asarida fe'llarning grammatik tahlili	Грамматическое исследование глаголов в "Кофия" Ибн Хаджиба	Grammatical research of the verbs in "Kafiya" of Ibn Khajib	Ibn Hojibning "Kofiya" asari asosida bir necha asrlardan beri grammatika sohasida ta'lim beriladi. Fe'llarning tuslanishi, mayllarda o'zgarishi, gap tarkibida ishlatilishi kabi masalalar tadqiq etiladi.
70230101-Lingvistika (pashtu)					
1.	A.M. Mannonov, f.f.d., professor	Pashtu tiliida o'zlashma transport terminlari	Заимствованные транспортные термины в языке пашту	Transport loan terms in Pashto	Pashtu tilidagi transport terminlarining struktur qatlamlari, yasalish usullari va o'zlashma transport terminlarining morfologik, fonetik va sintaktik o'zlashuviga bag'ishlangan tadqiqot olib boriladi. Pashtu tiliga ingliz, fransuz va rus tillaridan o'zlashmalar va ularning struktur tahlili amalga oshiriladi.

2.	A.M. Mannonov, f.f.d., professor	Pashtu tilida reduplikasiya	Редупликация в языке пашту	Reduplication in Pashto	Pashtu tilida qaytariq va takror so‘zlar mavjud bo‘lib, semantik o‘zgarishlarga uchragan holda boshqa ma’nolarni ifodalaydi hamda ularning pashtu tili leksik qatlamida ko‘rsatib berish maqsad qilingan. Pashtu tili leksikologiyasidagi reduplikativ so‘zlarning kontekstdagi o‘rnini ham aniqlanadi.
3.	A.M. Mannonov, f.f.d., professor	Pashtu tilida fe’liy frazeologizmlar	Глагольный фразеологизм в языке пашту	Verbal phraseological units in the pashto language	Pashtu tilida frazeologizmlarning ishlatilish chastotasida fe’liy frazeologizmlar alohida o‘rin tutadi. Umumiy tilshunoslikdagi fe’liy frazeologizmlarning nazariy asoslari. Shu asosda pashtu tilining fe’liy frazeologizmlari tahlil qilinadi.
4.	A.M. Mannonov, f.f.d., professor	Pashtu tilida ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning struktur qatlmlari	Структурные пласты общественно-политической терминологии в языке пашту	Structural layers of socio-political terminology in pashto	Pashtu tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar, ularning yasalish usullari va struktur qatlamlariga bag‘ishlangan tadqiqot olib boriladi. Pashtu tilida kundalik hayotda ishlatiladigan, affiksatsiya, kompozitsiya usullari orqali yasalgan ijtimoiy-siyosiy terminlar ilmiy yondashuv asosidagi tahlili yoritiladi. O‘z va o‘zlashma qatlam ijtimoiy-siyosiy terminlar bazasi tahlilga tortiladi.
5.	H.V. Mirzaxmedova, DSc, dotsent	Pashtu tilida salomlashuv aktlari va noverbal muloqot shakllari	Акты приветствия в языке пашту и невербальные коммуникации	Pashto greeting acts and non-verbal communication	Kommunikativ tilshunoslik tahlili asosida pashtu tilida salomlashuvning barcha aktlari va uning noverbal muloqot shakllari o‘rganib chiqiladi, so‘zlashuvchining salomlashuvdagi munosabatlari tahlil qilinadi va mulozamat so‘zlarini ajratib, lingvistik tahlil qilinadi.
6.	H.V. Mirzaxmedova, DSc, dotsent	Pashtu tilida kechirim so‘rash aktlari va ularning leksik-grammatik tahlili	Акты прощения в языке пашту и невербальные коммуникации	Acts of swearing in the Pashto language and non-verbal communications	Kommunikativ tilshunoslik tahlili asosida pashtu tilida kechirim so‘rashning barcha aktlari va uning noverbal muloqot shakllarini o‘rganib chiqish, so‘zlashuvchining kechiram munosabatlarini tahlil

			Акты приветствия в языке пашту и невербальные коммуникации		qilish asosida kechirim so‘rash so‘zlarni ajratib, lingvistik tahlil qilinadi

SHARQ SIVILIZASIYASI VA TARIX FAKULTETI

№	Mavzu taklif qilgan professor-o‘qituvchi	O‘zbek lotin yozuvida	Ingliz tilida	Rus tilida	Qisqacha annotatsiya
70220301 – Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligi					
1.	F. Jumaniyozova PhD, dotsent	Xuan Zang, U Kun, Xoy Chao asarlarida Afg‘onistonda etnosiyosiy jarayonlar.	Ethno-political processes in Afghanistan in the works of Huang Zang, U Kun, Khoi Chao.	Этнополитические процессы в Афганистане в произведениях Хуан Цзана, У Куна, Хой Чао.	Afg‘oniston tarixining qadmgi va ilk o‘rta asrlar davri tadqiqiga e’tibor qaratilgan mazkur mavzu o‘zining xitoy tilidagi manbalar va adabiyotlar asosida yozilishi bilan dolzarblik kasb etadi. Tadqiqotda afg‘on xalqining etnik tarixini o‘rganish asosiy masala sifatida belgilangan.
2.	Sh.I. Ikromov PhD	Afg‘onistonda tinchlikka erishish va uni qayta tiklash ishlarida Xitoyning ishtiroki	China's participation in the efforts to achieve peace and restore it in Afghanistan	Участие Китая в усилиях по достижению мира и его восстановлению в Афганистане	Afg‘onistonda tinchlikka erishish va mamlakatni qayta tiklash ishlarida ko‘plab yetakchi davlatlar qatorida Xitoy davlati ham ishtirok etmoqda, bu borada Xitoyning tashabbuslari xalqar hamjamiyat tomonida e’tirof etiladi. Xitoy bugungi kunga kelib afg‘oniston iqtisodiyotiga sarmoyalar yo‘naltirayotgan yetakchi davlatdir.
3.	Sh.I. Ikromov PhD	Xitoy, Pokiston va Afg'onistondagi milliy yarashuv jarayonida Xitoy va Pokiston	China, Pakistan and the process of national reconciliation in Afghanistan	Китай, Пакистан и процесс национального примирения в Афганистане	Tadqiqot uch tomonlama Xitoy-Afg‘oniston-Pokiston munosabatlari, Afg‘oniston ichidagi mojaroni hal qilishda Pekinning roli, mintaqaviy uglevodorod, transport va savdo loyihalari istiqbollariga bag‘ishlangan.

YAPONSHUNOSLIK FAKULTETI

№	Mavzu taklif qilgan professor-o‘qituvchi	O‘zbek lotin yozuvida	Ingliz tilida	Rus tilida	Qisqacha annotatsiya
70230101-Lingvistika (yapon)					
1.	S.T Mustafayeva PhD	Yapon tili manzarasida “gul” konseptosferasining lingvomadaniy tahlili	Linguacultural analysis of the concept sphere “flower”in the Japanese language culture world picture	Лингвокультуролог ический анализ концептосферы “цветок” в японской языковой картине мира	Yapon tili, yapon madaniyati jahon hamjamiyatida qator jihatlari bilan ajralib turadi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi doirasida yapon madaniyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan 花 so‘zi konsept maydonini tahlil qilish orqali yapon tilining milliy madaniyat bilan aloqasi, til birliklari shakllanishi, ularning semantik xususiyatlari takomilida millat ongidagi dunyo manzarasining ta’siri masalalarini o‘rganish maqsad qilingan.
2.	N.A. Turapova PhD	“Insonning hissiy holati" ma'nosiga ega bo'lgan Yapon frazeologik birliklarida tasvirni yaratish xususiyatlari”	Features of creating imagery in Japanese phraseological units with the meaning of " the emotional state of a person”	Особенности создания образности в японских фразеологических единицах со значением “эмоционального состояния человека”	Фразеологические единицы японского языка являются одним из наиболее ярких способов передачи эмоционального состояния человека в силу их образности и экспрессивности. В данной работе будут рассмотрены вопросы создания образности в японских фразеологических единицах со значением “эмоционального состояния человека”
3.	N.T. Xalmurzayeva PhD	Yapon tilida son turkumining leksik-grammatik va	Lexico-grammatical and linguocultural	Лексико-грамммматические и лингвокультурные	Ushbu mavzuda yapon tilidagi sonning leksik-grammatik xususiyatlarini, hamda birlik,o‘nlik va undan yuqori sonlarni semantik jihatdan o‘rganish

		lingvomadaniy xususiyatlari	features of the number in Japanese	особенности числа в японском языке	maqsad qilingan. Yapon tilida predmetlarning miqdori yoki tartibini bildiruvchi sonlar muayyan iyerogliflar orqali berilib, sifatning ma'no turi yoki yordamchi so'zlar sifatida berilishi sonlarda alohida leksik ma'no, sintaktik ishlatilishining xususiyatlari , hisob so'zlar bilan birikib kelishi kabi xususiyatlari tahlil qilinadi.

XITOYSHUNOSLIK FAKULTETI

№	Mavzu taklif qilgan professor-o'qituvchi	O'zbek lotin yozuvida	Ingliz tilida	Rus tilida	Qisqacha annotatsiya
70230101-Lingvistika (xitoy)					
1.	O.M.Ochilov PhD., dots.	Xitoy tilida geografik nomlarning sotsiolingvistik tadqiqi	Sociolinguistic study of geographical names in Chinese	Социолингвистическое исследование географических названий на китайском языке	Toponimiya til tarixi (tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va b.)ni tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi, chunki ba'zi toponimlar arxaizm va dialektizmlarni o'zgartirmasdan barqaror saqlab qoladi, ko'pincha muayyan hududda yashagan xalqlarning sheva va lahjalariga borib taqaladi. Mazkur mavzuni tadqiq qilish xitoy xalqlarning tarixiy o'tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, shevalarning o'tmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yo'llari geografiyasini tavsiflashga yordam beradi.

2.	O.M.Ochilov PhD., dots.	Hozirgi zamon xitoy tilida *Jisyangyuy (吉祥语)*larning semantik-stilistik tadqiqi	A semantic-stylistic study of *Jisyangyuy* (*吉祥语*) in modern Chinese	Семантико-стилистическое исследование *Jisyangyuy* (*吉祥语*) в современном китайском языке.	Hozirgi zamon xitoy tilida *Jisyangyuy (吉祥语)*lar nisbatan noyob lingvistik hodisa bo‘lib, u ko‘zga ko‘rinmas “ilohiy kuchlarga” xurofiy ishonish natijasida yuzaga kelgan. Til ham ilohiy hisoblanib u orqali baxt-saodatga, ezgu niyatlarga yetishish mumkin deya ishonilgan. Keyinchalik *Jisyangyuy (吉祥语)*lar odob kategoriyasining bir qismiga aylanib, ijtimoiy muloqotda muhim rol o‘ynay boshladi. Hozirgi zamon xitoy tilida *Jisyangyuy (吉祥语)*larni ilmiy tadqiq etish mansub til vakillarining so‘zlashuv madaniyati hamda uning yuzaga kelish qonuniyatlari tushinishga yordam beradi.
3.	O.M.Ochilov PhD., dots.	Xitoy va o‘zbek tillarida taqlid so‘zlarning chog‘ishtirma tadqiqi	Comparative study of imitation of words in Chinese and Uzbek languages	Сравнительное исследование звукоподражаний в китайском и узбекском языках	Taqlid so‘zlar bu odam, tabiat hodisalari va boshqa hayvonlar tovushi simulyatsiyalangan tildir. Bu fanda Onomatopeya deb ham ataladi. Onomatopeyada ishlatilgan tovush his va ongni aks ettiradi, aks sado va rezonans o'rtasida tovush va idrokni hosil qiladi, bunda badiiy jozibadorlikni oshirish uchun oddiy jumlalar yanada jonli bo'ladi. Xitoy va o’zbek tillarida onomatopeya juda muhim lug'at va til hodisasidir. Mazkur ikki tilda onomatopeya kata miqdorda mavjud bo'lib, ular juda ko'p umumiylik va individuallikka ega. Mazkur mavzu doirasida o‘zbek va xitoy onomatopeyalari fonologik, sintaktik funksiyalarning umumiyligi va individualligi jihatidan chog‘ishtirilib o‘rganiladi.

TDSHU rektorining
2023-yil "_1_" _mart_-dagi
43-44-son buyrug'iga 2-ilova

2022/2023-o'quv yilida qo'shimcha o'qishga qabul qilingan magistratura mutaxassisliklari 1-kurs talabalarining magistrlik dissertatsiyalari mavzulari va ilmiy rahbarlari
(2022/2024-o'quv yillari uchun)

SHARQ FILOLOGIYASI VA TARJIMASHUNOSLIK FAKULTETI

№	Magistrantning F.I.Sh.	O'zbek lotin yozuvida	Rus tilida	Ingliz tilida	Ilmiy rahbar	Talaba imzosi	Kafedra mudiri imzosi
70230101-Lingvistika (arab)							
3.	Latipjanov Abdulatif Ulug'bek o'g'li	"Adab-ul-Mufrad" asarida izofa turlarining qo'llanishi	Применение видов изафетного сочетания в "Абдул Муфрад"	Using the types of Idafa in "Adabul Mufrad"	Ali Abdelzaher, PhD		
4.	Jo'raboyev Abdulatif Ibroximjon o'g'li	Ibn Hojibning "Kofiya" asarida fe'llarning grammatik tahlili	Грамматическое исследование глаголов в "Кофия" Ибн Хаджиба	Grammatical research of the verbs in "Kafiya" of Ibn Khajib	B.M. Begmatova, dotsent		
70230101-Lingvistika (pashtu)							
1.	Xaitov Ashurali G'ayrat o'g'li	Pashtu tiliida o'zlashma transport terminlari	Транспортные заимствованные термины в языке пашту	Transport loan terms in Pashto	A.M. Mannonov f.f.d., professor		

2.	Almardonov Ziyodullo Toshpo‘lat	Pashtu tilida reduplikasiya	Редупликация в языке пашту	Reduplication in Pashto	A.M. Mannonov f.f.d., professor		

SHARQ MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI, SIYOSATI VA TURIZM FAKULTETI

№	Magistrantning F.I.Sh.	O‘zbek lotin yozuvida	Rus tilida	Ingliz tilida	Ilmiy rahbar	Talaba imzosi	Kafedra mudiri imzosi
7031802-Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati mutaxassisligi							
1.	Latipova Sitora Sirojiddin qizi	O‘zbekiston milliy xavfsizligini ta’minlash tizimining o ‘ziga xos xususiyatlari	Особенности системы обеспечения национальной безопасности Узбекистана	Features of the national security system of Uzbekistan	S.M. Bo‘ronov PhD		
2.	Berdiyev Jamshidbek Ural o‘g‘li	Zamonaviy jahon siyosatida transmilliy aktorlar ishtiroki	Участие транснациональных акторов в современной мировой политике	Transnational actors participation in modern world politics	H.I. Mustapova PhD		
3.	Burxonxo‘jayeva Nilufar Nuridin qizi	Axborot urushi va Markaziy Osiyo mintaqasida milliy xavfsizlikni ta’minlash muammolari	Информационная война и проблемы обеспечения национальной безопасности в Центральноазиатском регионе	Information war and problems of ensuring national security in the Central Asian region	A.N. Nazarov PhD		

		yillardagi fashistik Germaniyaning Afg'onistondagi siyosati	Афганистане накануне и в годы второй мировой войны, 1933-1943 гг.	the eve and during the Second World War, 1933-1943			
2.	Xusanov Zuxriddin Mumin o‘g‘li	Xuan Zang, U Kun, Xoy Chao asarlarida Afg‘onistonda etnosiyosiy jarayonlar	Этнополитические процессы в Афганистане в произведениях Хуан Цзана, У Куна, Хой Чао	Ethno-political processes in Afghanistan in the works of Huang Zang, U Kun, Khoi Chao	F. Jumaniyozova PhD, dotsent		

YAPONSHUNOSLIK FAKULTETI

№	Magistrantning F.I.Sh.	O‘zbek lotin yozuvida	Rus tilida	Ingliz tilida	Ilmiy rahbar	Talaba imzosi	Kafedra mudiri imzosi
70230101-Lingvistika (yapon)							
1.	Nishanbayeva Saobarxon Akmaljon qizi	Yapon tili manzarasida “gul” konseptosferasining lingvomadaniy tahlili	Лингвокультурологический анализ концептосферы цветок в японской языковой картине мира	Linguacultural analysis of the concept sphere “flower” in the Japanese language culture world picture	PhD S.T Mustafayeva		

XITOYSHUNOSLIK FAKULTETI

№	Magistrantning F.I.Sh.	O‘zbek lotin yozuvida	Rus tilida	Ingliz tilida	Ilmiy rahbar	Talaba imzosi	Kafedra mudiri imzosi
70230101-Lingvistika (xitoy)							
1.	Eshpo‘latov Nuralu Nizomiddin o‘g‘li	Hozirgi zamon xitoy tilida *Jisyangyuy (吉祥语)*larning semantik-stilistik tadqiqi	Семантико-стилистическое исследование *Jisyangyuy* (*吉祥语*) в современном китайском языке.	A semantic-stylistic study of *Jisyangyuy* (*吉祥语*) in modern Chinese	PhD, dots. Ochilov O.M.		
70220301-Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligi							
1.	Melikuziyev Ziyodjon Gayratjon o‘g‘li	Ko‘ptomonlama Xitoy diplomatiyasining asosi yo‘nalishlari va rivojlanish bosqichlari	Эволюция и основные направления многосторонней дипломатии КНР	Evolution and Main Directions of China's Multilateral Diplomacy	s.f.n., dotsent Sh.Shozamonov		

Тошкент давлат шарқшунослик университети
Кенгашининг 2023 йил 25 февралдаги 7-сонли
мажлиси баённомасидан

К Ў Ч И Р М А

ҚАТНАШДИЛАР: Кенгашнинг **44** аъзосидан **39** киши

КЎРИЛГАН МАСАЛА: 2022/2023 ўқув йилида қўшимча равишда ўқишга қабул қилинган, январь ойида ўқишга тикланган ва қўшма дастур асосида ўқишга қабул қилинган 1-курс магистратура мутахассисликлари талабаларига таклиф этилётган магистрлик диссертациялари мавзуларини умумий базага киритиш, магистрантларга бириктириш ва илмий раҳбарларини тасдиқлаш, айрим талабаларнинг илмий раҳбарларини ўзгартириш тўғрисида

Масала юзасидан Магистратура бўлими бошлиғи Ш.Ж.Саидов сўзга чиқди:

2022/2023 ўқув йили ноябрь-январь ойларида қўшимча равишда ўқишга қабул қилинган, январь ойида ўқишга тикланган ва "Халқаро муносабатлар ва жаҳон сиёсати" мутахассислигига Санкт-Петербург давлат университети билан қўшма дастур асосида ўқишга қабул қилинган 1-курс магистратура мутахассисликлари талабаларининг магистрлик диссертациялари мавзуларини ва илмий раҳбарларини тасдиқлаб беришингизни сўрайман. Шуни таъкидлашим керакки, Араб филологияси, Эрон-афғон филологияси, Хитой филологияси, Япон филологияси, Шарқ мамлакатлари тарихи ва антропологияси кафедрасига ўқишга қабул қилинган 1-курс талабаларига тақдим қилинган мавзулар 2022 йил 27-сентябрда Кенгашда тасдиқланган МД мавзулар базасида йўқлиги боис, ушбу мавзуларни(1-илова) бугунги Кенгаш қарори билан умумий базага киритиб, кейин магистрантларга бириктиришни(2-илова) таклиф қиламан. Мазкур мавзулар тегишли кафедраларда ва факультетларнинг кенгашларида муҳокама қилинган ҳамда тасдиқланган. Руйхат Кенгаш аъзоларига ўқиб эшиттирилди. Мазкур ўқув йилида "Япон филологияси" кафедраси устози Суганосаннинг вафоти, кафедра мудири Н. Холмирзаеванинг илмий раҳбарлик лимити нормадан ошиб кетганлиги боис, "ШМИ" кафедраси профессори Т. Расулов ишдан бўшаганлиги, "ШМТ" кафедраси профессорларидан бири вафот этганлиги ва иккинчиси билан мехнат шартномаси бекор қилинганлиги муносабати билан уларга бириктирилган талабаларнинг илмий раҳбарларини ўзгартириш (3-илова) таклиф қилинди. Таклиф бир овоздан қабул қилинди.

Фикр ва мулоҳазалардан сўнг,

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. 2022/2023 ўқув йилида қўшимча равишда ўқишга қабул қилинган, январь ойида ўқишга тикланган ва қўшма дастур асосида ўқишга қабул қилинган 1-курс магистратура мутахассисликлари талабаларига таклиф этилаётган магистрлик диссертациялари мавзуларини умумий базага киритиш, МД мавзуларини бириктириш ва илмий раҳбарларини тасдиқлаш, айрим талабаларнинг илмий раҳбарлари ўзгартириш ҳақидаги ахбороти маълумот учун қабул қилинсин.

2. 2022/2023 ўқув йилида қўшимча равишда ўқишга қабул қилинган, январь ойида ўқишга тикланган ва қўшма дастур асосида ўқишга қабул қилинган 1-курс магистратура мутахассисликлари талабаларига таклиф этилган магистрлик диссертациялари мавзулари 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин ва умумий базага киритилсин.

3. Тегишли кафедраларда, факультетларнинг Кенгашларида муҳокама қилинган, 2022/2023 ўқув йилида қўшимча равишда ўқишга қабул қилинган, январь ойида ўқишга тикланган ва қўшма дастур асосида ўқишга қабул қилинган 1-курс магистратура мутахассисликлари талабаларига бириктирилган магистрлик диссертациялари мавзулари ва уларнинг раҳбарлари 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

4. Айрим магистрантларнинг илмий раҳбарларини ўзгартириш 3-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Кўчирма аслига тўғри:
Тошкент давлат шарқшунослик
университети Кенгаши котиби **М.Р.Пулатова**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI KADRLAR BO'LIMI